



UZBEKISTAN'S INITIATIVES IN CENTRAL ASIAN ENERGY POLICY

Oybek Gaybullayev

PhD Candidate

Tashkent Institute of Chemical Technology

Email: oybek1701bk@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, energy policy, renewable energy, green economy, regional integration, energy security, public-private partnership, nuclear energy, international cooperation.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 03.12.25

Abstract: This article analyzes the current state of energy policy in the Central Asian region and the initiatives of the Republic of Uzbekistan in this field. The economic and geopolitical significance of Uzbekistan's energy reforms based on market economy principles, the processes of implementing renewable energy sources, and the policy of international cooperation and regional integration are highlighted. Additionally, the article examines projects being implemented within the framework of the country's "green economy" concept, solar and wind power plants being constructed based on the public-private partnership model, and initiatives aimed at forming a regional energy system. The study scientifically assesses the role of Uzbekistan's energy policy in ensuring regional stability, economic growth, and environmental security.

MARKAZIY OSIYO ENERGETIKA SIYOSATIDA O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI

Oybek G'aybullayev

Tayanch doktorant

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Email: oybek1701bk@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit	so'zlar:	Markaziy Osiyo, energetika siyosati, qayta tiklanuvchi energiya, yashil iqtisodiyot, mintaqaviy	Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida energetika siyosatining hozirgi holati hamda O'zbekiston
--------------	-----------------	---	---

integratsiya, energetika xavfsizligi, davlat-xususiy sheriklik, atom energetikasi, xalqaro hamkorlik.

Respublikasining sohadagi tashabbuslari tahlil qilinadi. O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan energetika islohotlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish jarayonlari, xalqaro hamkorlik va mintaqaviy integratsiya siyosatining iqtisodiy hamda geosiyosiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mamlakatning "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar, davlat-xususiy sheriklik modeli asosida qurilayotgan quyosh va shamol elektr stansiyalari, hamda mintaqaviy energetika tizimini shakllantirishga qaratilgan tashabbuslar tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekistonning energetika siyosati mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda tutgan o'rnini ilmiy nuqtai nazardan baholangan.

ИНИЦИАТИВЫ УЗБЕКИСТАНА В ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Ойбек Гайбуллаев

Докторант PhD

Ташкентский химико-технологический институт

Email: oybek1701bk@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, энергетическая политика, возобновляемая энергия, зеленая экономика, региональная интеграция, энергетическая безопасность, государственно-частное партнерство, атомная энергетика, международное сотрудничество.

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние энергетической политики в Центральноазиатском регионе и инициативы Республики Узбекистан в этой сфере. Освещены энергетические реформы Узбекистана, основанные на принципах рыночной экономики, процессы внедрения возобновляемых источников энергии, экономическое и геополитическое значение политики международного сотрудничества и региональной интеграции. Также анализируются проекты, реализуемые в рамках концепции "зеленой экономики" страны, солнечные и ветровые электростанции, строящиеся на основе модели государственно-частного партнерства, а также инициативы, направленные на формирование региональной энергетической системы. В исследовании с научной точки зрения оценивается роль энергетической политики

Kirish. XXI asrda energetika sohasi har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi hamda milliy xavfsizligini ta'minlovchi strategik omilga aylandi. Global miqyosda resurslar taqchilligi, iqlim o'zgarishlari, uglerod emissiyasini kamaytirish zarurati va "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga o'tish jarayonlari davlatlarni energetika tizimini tubdan isloh qilishga majbur qilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi bu jarayonlarda o'zining boy tabiiy resurslari, geografik joylashuvi va tranzit salohiyati bilan alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda mintaqaviy energetika siyosatining faol ishtirokchisiga aylanib, nafaqat milliy energiya xavfsizligini ta'minlash, balki Markaziy Osiyoda barqaror energetika tizimini shakllantirish borasida ham qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev energiya manbalarining davlat hayotidagi ahamiyati haqida to'xtalib, "Biz bir narsani aniq tushunib olishimiz zarur: energiya manbalari yetarli bo'lmasa, iqtisodiy o'sish ham bo'lmaydi, kambag'allik ham qisqarmaydi. Elektr energetikasi iqtisodiyotning "motori" bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, umuman hayotni bu sohasiz tasavvur etib bo'lmaydi", – deya ta'kidlagan edi (1). Shu boisdan ham mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarishning 70 foizdan ortig'i qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liq bo'lishiga qaramay, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, bozor mexanizmlarini joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali energetika tarmog'ida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", shuningdek "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlar mamlakat energetika siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu hujjatlar energetika sohasini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yirik quyosh, shamol va gidroenergetika loyihalarini amalga oshirish uchun huquqiy va institutsional asos yaratdi.

Bugungi kunda beligangan chora-tadbirlar doirasida yagona energetika tizmiga integratsiya qilishning texnik imkoniyati mavjud nuqtalarda muqobil energetika loyihalarini ishga tushirib, ularda ishlab chiqarilgan energiya manbasini kafolatli sotib olish imkoniyati taqdim etilayotgani, elektr energetikasi bozoriga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va mustaqil elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar kirishini rag'batlantiruvchi auksion savdolarini joriy etilganligi, investorlarni raqobat asosida tanlashning zamonaviy va shaffof uslublarini

shakllantirilganligi, uzoq aholi yashash manzillarida energiya manbalari bilan ta'minlashning nomarkazlashgan tizimi joriy e'tilishi, kichik derivatsion GESlar va ularning infratuzilmalarini qurish amaliyoti yo'lga qo'ilishi natijasida mamlakat energetika tizimida yashil energetikaning ulushi oshib bormoqda.

Mavzuga oid adbiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo mintaqasida energetika siyosati, mintaqaviy hamkorlik va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga oid masalalar so'nggi yillarda nafaqat mahalliy, balki xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiborida ham bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilar bu yo'nalishda asosan uchta asosiy yo'nalishga e'tibor qaratishadi: energiya xavfsizligi va resurslardan oqilona foydalanish; energetika sohasidagi mintaqaviy integratsiya jarayonlari; qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlik.

Birinchidan, energiya xavfsizligi masalasida E.Abdikadirova, F.Aras, E.Kandemir kabi olimlar Markaziy Osiyo energetika tizimining transformatsiyasi, yoqilg'i resurslaridan foydalanish samaradorligi va energetika infratuzilmasining modernizatsiyasi masalalarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida energetika sohasining bozor iqtisodiyotiga moslashtirilishi, xususiy sarmoyalarni jalb etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi ustuvor yo'nalish sifatida baholangan (2).

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi integratsiya va energetika mavzularida – O.Sirojov, R.Farmonov, Ch.Ko'charov, M.Mirzoolimov, F.Aminjonov, B.Eshchanov, X.Ibragimov, S.Ibragimova, D.Olimov, O.Alimov kabi tadqiqotchilar tomonidan chuqur tahliliy ishlar olib borilgan. Ularning asarlarida sobiq sovet merosi, energetika tizimining o'zaro bog'liqligi va suv-energetika resurslarining geosiyosiy omilga aylangani yoritilgan. O.O.Sirojov ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro energetik hamkorligi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy barqarorlik omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega (3).

Uchinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yashil iqtisodiyot masalalarida so'nggi yillarda BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon banki, Xalqaro energetika agentligi (IEA) hamda Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan bir qator tahliliy hisobotlar e'lon qilindi. IEA (2022) hisobotida O'zbekiston mintaqada quyosh va shamol energiyasi bo'yicha eng tez rivojlanayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etilgan (4).

Tahlil shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga qadar mavjud adabiyotlarda O'zbekistonning energetika sohasidagi islohotlari va mintaqaviy tashabbuslari alohida yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularning Markaziy Osiyo energetika integratsiyasi va geosiyosiy barqarorlik kontekstidagi kompleks tahlili yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois ushbu maqola mavjud ilmiy manbalarni umumlashtirgan holda, O'zbekiston tashabbuslarini mintaqaviy energetika siyosatining tarkibiy qismi sifatida tahlil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishda O'zbekistonning Markaziy Osiyo energetika siyosatidagi o'rni va tashabbuslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi xalqaro energetika siyosati, mintaqaviy integratsiya nazariyalari hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasi tamoyillariga tayanadi.

Avvalo, tizimli tahlil metodi qo'llanilib, O'zbekiston energetika siyosatining tarkibiy elementlari — institutsional islohotlar, bozor mexanizmlarining joriy etilishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganildi. Bu yondashuv mamlakatning energetika tashabbuslarini iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar birligi nuqtai nazaridan baholash imkonini berdi.

Tarixiy-solishtirma yondashuv yordamida O'zbekiston energetika siyosatining mustaqillikdan keyingi bosqichlari, sovet davridan meros qolgan energetika infratuzilmasi bilan bugungi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan tizim o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali Markaziy Osiyo davlatlarining energetika siyosatlari, resurslar tarkibi va mintaqaviy hamkorlik darajasi o'rganildi. O'zbekistonning tashabbuslari Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston siyosatlari bilan solishtirilib, ularning o'zaro farqli va umumiy jihatlari aniqlangan. Bu mintaqaviy integratsiya imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlashda muhim metodik ahamiyat kasb etdi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston energetika siyosatining zamonaviy yo'nalishlari. O'zbekiston so'nggi yillarda energetika sohasida chuqur islohotlarni amalga oshirib, mintaqada energetika tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha ilg'or tajribani shakllantirdi. Energetika — mamlakat iqtisodiyotining tayanch sohasi bo'lib, sanoat rivoji, aholining farovonligi, raqamli infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar samaradorligini bevosita belgilaydi. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda mamlakat energetika tizimi asosan sovet davridan meros qolgan yoqilg'i infratuzilmasiga tayangan bo'lsa, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini energiya jihatdan diversifikatsiya qilish yo'lida faol islohotlarni amalga oshirmoqda.

2019-yilda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun (5), "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (6) va "O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi (7) ushbu sohadagi siyosatni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu hujjatlar bozor mexanizmlarini joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik modelini kengaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston energetika tizimida bozor tamoyillarini tatbiq etish jarayonida bir nechta muhim natijalarga erishildi. 2025-yil holatiga ko'ra, elektr energiyasi ishlab chiqarishning 70 foizi qazib olinadigan yoqilg'iga, 25–30 foizi esa qayta tiklanuvchi manbalarga to'g'ri kelmoqda. Mamlakat energetika sektoriga 2018–2024-yillar davomida 20 milliard dollardan

ortiq xorijiy sarmoya kiritildi. Shu davrda umumiy quvvati 9,6 GVt bo'lgan energetika inshootlari ishga tushirildi, ularning katta qismi quyosh va shamol elektr stansiyalaridan iborat. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "O'zbekistonda yashil rivojlanish bugungi kunda umummilliy harakat darajasiga ko'tarildi" (8). Davlat rahbari tashabbusi bilan energetika sohasida xorijiy investorlarga qulay sharoitlar yaratilib, tenderlar ochiq auksion shaklida o'tkazilmoqda. Bu esa raqobatni kuchaytirib, sohada samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 54 foizdan oshishi kutilmoqda.

Xalqaro hamkorlik va investitsiya siyosati. O'zbekistonning energetika sohasidagi tashabbuslari ko'p vektorlilik va ochiqlik tamoyillariga asoslanadi. Mamlakat bir vaqtning o'zida Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq davlatlari bilan faol energetik hamkorlik siyosatini yuritmoqda. Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar, Saudiya Arabistonining ACWA Power, Fransiyaning Total Eren va Volitalia, Xitoyning Jinko Power, Kanadaning SkyPower Global, Shveysariyaning AFG Energy kompaniyalari bilan amalga oshirilayotgan yirik loyihalar bunga yaqqol misoldir.

Hozirda 50 dan ortiq yirik yashil energetika loyihalari amalga oshirilmoqda, ularning umumiy qiymati 26 milliard dollardan ortiqni tashkil etadi. Natijada, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining bir qismi eksport salohiyatiga ega bo'lib bormoqda. O'zbekiston nafaqat o'z ichki ehtiyojini qondirish, balki kelajakda energiya eksportchisi sifatida Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasidagi energetika ko'prigiga aylanishni maqsad qilgan.

Investitsiyalar oqimi bilan bir qatorda, texnologik transfer ham kuchaymoqda. Masdar va ACWA Power kompaniyalari bilan hamkorlikda zamonaviy energiya saqlash tizimlari, "smart grid" texnologiyalari va energiya samaradorligini oshiruvchi innovatsion yechimlar joriy etilmoqda. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va IRENA bilan hamkorlikda qayta tiklanuvchi energiya bozorini liberallashtirish, investitsion xavflarni kamaytirish bo'yicha qo'shma dasturlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston hukumati energetika siyosatini nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy muvozanat nuqtai nazaridan ham olib bormoqda. Mamlakatning diversifikatsiya siyosati Rossiya, Xitoy, Yevropa va Yaqin Sharq o'rtasida muvozanatni saqlash imkonini beradi. Mustaqillikning dastlabki choragida O'zbekistondagi uran bozorida AQSh yetakchilik qilgan bo'lsa, ayni paytda mamlakat tashqi savdo hamkorlari va investorlarini diversifikatsiya qilishga intilmoqda. O'zbekistondan Janubiy Koreya, Yaponiya va Hindistonga uran yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzolangan (9). Ayniqsa, Fransiya bilan atom energetikasi sohasidagi hamkorlik ("Orano" va "Navoiuran" kompaniyasi o'rtasida 2030-yilgacha uran ishlab chiqarish va qayta ishlash hajmini ikki baravar oshirish bo'yicha kelishuv) O'zbekiston uchun yangi texnologik

yo‘nalish bo‘lib, yadro energetikasini tinch maqsadlarda rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etmoqda.

Mintaqaviy hamkorlik va energetika integratsiyasi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi energetika hamkorligi mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston so‘nggi yillarda bu borada mintaqaviy integratsiyaning asosiy tashabbuskori sifatida maydonga chiqdi. Bugun Markaziy Osiyo davlatlarida muhim masalalarda umumiy yondashuv shakllanib, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Prezidenti bu haqida so‘z yuritib “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan manfaatdordir”, – deya ta’kidlagan edi (10).

O‘zbekistonning geografik joylashuvi – mintaqaning markazida joylashganligi – uni tabiiy tranzit markaziga aylantiradi. Shu bois, mamlakat energetika tizimini qo‘shni davlatlar bilan uyg‘un ishlashga yo‘naltirgan. Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan elektr energiyasi almashinuvi, Turkmaniston bilan gaz transport infratuzilmasini rivojlantirish, Tojikiston bilan suv-energetika muvozanatini saqlash bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Qambar Ota I, Rog‘un GESlari, O‘zbekiston va Qozog‘istonda amalaga oshirilayotgan yashil energetika, jumladan, AES loyihalari to‘liq quvvatda ishga tushganida mintaqa davlatlarida ortiqcha energiya resursi paydo bo‘ladi. Bu vaziyatdan samarali foydalanib, ortiqcha energiya resusrlarini jahon bozoriga taqdim qilish mintaqa davlatlarining energetika imkoniyatlarini birlashtirish holatiga bog‘liq bo‘lib, “...hamkorlik qilgan taqdirdagina mintaqaning strategik imtiyoz va afzalliklaridan to‘laonli va keng qamrovli ravishda foydalanish uchun imkoniyat yaratishi mumkin” (11).

O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan Kaspiyosti “energetika koridori” loyihasi mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lib, u orqali Ozarbayjon hududi orqali Yevropaga elektr energiyasi eksporti yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo – Xitoy elektr uzatish liniyasini qurish loyihasi ham mintaqaviy integratsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekistonning tashabbuslari natijasida mintaqa davlatlari o‘rtasida siyosiy muloqot faollashdi, suv-energetika muammolarini hal etishda o‘zaro ishonch mustahkamlandi. Mintaqaviy integratsiyaning kuchayishi Markaziy Osiyoning xalqaro energetika bozorida yagona sub’yekt sifatida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Yashil energetika va ekologik barqarorlik siyosati. O‘zbekiston uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy zarurat, balki ekologik barqarorlik

masalasidir. Mamlakat iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish maqsadida "yashil rivojlanish" strategiyasini amalga oshirmoqda.

Yashil energetika rivoji sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro iqlim fondlari bilan hamkorlik O'zbekistonga ekologik loyihalarni moliyalashtirishda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Atom energetikasining rivojlantirilishi ham "kam uglerodli energetika" siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. 2019-yilda qabul qilingan yadro energetikasini rivojlantirish konsepsiyasi asosida Rossiya va Fransiya bilan hamkorlikda zamonaviy xavfsizlik standartlariga javob beruvchi atom stansiyasi loyihasi ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston va Markaziy Osiyoning qolgan davlatlari energetika siyosati

Mezonlar	O'zbekiston	Qozog'iston	Turkmaniston	Tojikiston	Qirg'iziston
Asosiy energiya manbalari	Tabiiy gaz, qayta tiklanuvchi energiya	Neft, gaz, ko'mir	Tabiiy gaz	Gidroenergetika	Gidroenergetika
Energiya siyosati yo'nalishi	Diversifikatsiya, bozor tamoyillari, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish	Energiya eksporti, uglerod emissiyasini kamaytirish	Eksportga yo'naltirilgan gaz siyosati	Suv-energetika salohiyatini kengaytirish	GESlar orqali mintaqaviy energiya savdosini rivojlantirish
Mintaqaviy energetika integratsiyasi	Faol tashabbuskor: Kaspiyosti "energetika koridori", Markaziy Osiyo–Xitoy elektr liniyasi	Faol ishtirokchi, "O'zbekiston – Qozog'iston –Rossiya" tarmog'ida	Passiv ishtirokchi, asosan eksportga yo'naltirilgan	Energiya almashinuvi, suv-energetika kelishuvlari	Energiya taqchilligi sababli importga qaram
2030-	Qayta	2060-	\Gaz	Gidroenergetika	Energetika

yilgacha energetika maqsadlari	tiklanuvchi energiya ulushini 50–54 foizga yetkazish, elektr energiya eksportini yo‘lga qo‘yish	yilgacha uglerod neytrallikka erishish, eksportni kengaytirish	eksportini oshirish va suyultirilgan tabiiy gaz loyihalarini rivojlantirish	ka quvvatini 30 foizga oshirish	barqarorligini ta‘minlash va importni qisqartirish
---------------------------------------	---	--	---	---------------------------------	--

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda energetika siyosatini chuqur isloh qilish, bozor tamoyillarini joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali Markaziy Osiyoda mintaqaviy energetika hamkorligining markaziy ishtirokchisiga aylandi. Mamlakat tashabbuslari nafaqat milliy energiya xavfsizligini ta‘minlash, balki mintaqaviy integratsiya, ekologik barqarorlik va global “yashil o‘tish” jarayonlariga faol hissa qo‘shmoqda.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, O‘zbekistonning energetika siyosati so‘nggi besh yillikda tizimli islohotlar bosqichiga o‘tdi. Qayta tiklanuvchi energiya, davlat-xususiy sheriklik, energetika bozorining erkinlashtirilishi va xalqaro investitsiyalarni jalb etish yo‘nalishlari energetika tizimining barqarorligini oshirmoqda.

Ikkinchidan, Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jadal rivojlanishi mamlakat energetika balansi diversifikatsiyasini ta‘minlab, tabiiy gazga bo‘lgan qaramlikni kamaytirmoqda. Shu bilan birga, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi va uglerod izini kamaytirdi.

Uchinchidan, O‘zbekistonning mintaqaviy energetika tashabbuslari – Kaspiyosti “energetika koridori”, Markaziy Osiyo–Xitoy elektr uzatish tizimi va atom energetikasini rivojlantirish kabi loyihalar – mintaqada energetika integratsiyasi jarayonlarini tezlashtirmoqda.

To‘rtinchidan, mamlakatning ko‘p vektorlilik siyosati (BAA, Saudiya Arabistoni, Fransiya, Xitoy, Kanada, Shveysariya bilan hamkorlik) texnologik transfer, ilmiy hamkorlik va barqaror investitsion muhitni shakllantirishda muhim omilga aylandi.

Beshinchidan, O‘zbekistonning energetika siyosati BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari va Parij kelishuvi talablariga mos keluvchi “yashil transformatsiya” modelini amaliyotda shakllantirib, Markaziy Osiyo mintaqasining ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan barqaror energiya markaziga aylanishiga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilarni takliflar qilamiz:

1. Mintaqaviy energetika integratsiyasini institutsional asosda mustahkamlash – Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yagona energetika siyosati bo‘yicha maslahat organi yoki

“Markaziy Osiyo energetika forumi”ni tashkil etish zarur. Bu platforma siyosiy kelishuvlar, energiya savdosi va investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

2. Yashil energetika loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish – suveren “yashil obligatsiyalar” (green bonds) chiqarish, xalqaro iqlim fondlari bilan hamkorlikni kuchaytirish O‘zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya sektorida barqaror moliyaviy manba yaratadi.

3. Texnologik innovatsiyalarni milliy ishlab chiqarishga joriy etish – quyosh paneli, shamol turbinalari, energiya saqlash tizimlari va vodorod texnologiyalarini mahalliyashtirish orqali texnologik mustaqillikka erishish mumkin.

4. Energiya samaradorligini oshirish va energiya tejavchi siyosatni kuchaytirish – sanoat, transport va uy-joy sektorlarida energiya sarfini kamaytiruvchi standartlar va rag‘bat tizimini joriy etish zarur.

5. Kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni oshirish – energetika muhandisligi, ekologik siyosat va texnologik innovatsiyalar yo‘nalishida xalqaro ta‘lim va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali malakali mutaxassislar zaxirasini mustahkamlash lozim.

6. Transchegaraviy suv-energetika muammolarini hal etishda hamkorlikni kuchaytirish – suv resurslari va gidroenergetika tizimlarining birgalikdagi boshqaruvi mintaqaviy barqarorlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston tashabbuslari Markaziy Osiyo energetika siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. U nafaqat milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilmoqda, balki mintaq miqyosida yagona, barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz energetika makonini shakllantirishda yetakchi rol o‘ynamoqda. Shu jihatdan, O‘zbekiston tajribasi mintaqa davlatlari uchun energetika sohasida hamkorlik va integratsiya modelining muvaffaqiyatli namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Elektr energetikasi sohasini yanada rivojlantirish masalalari. Toshkent : <https://president.uz/oz/lists/view/2066>, 2018.

2. Enerji güvenliği bağlamında ab enerji politikaları ve ab-orta asya ilişkileri . Ferhat çağrı aras, ekber kandemir. 2, 2023, Vol. Volume 7. – P 107-126.

3. Сирожов , Ойбек Очилович. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари . Тошкент : ЎЗБЕКИСТОН, 2016. 205.

4. Iea. Carec energy outlook 2030. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/850111/carec-energy-outlook-2030.pdf>. December 2022.

5. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida O'RQ-539-son . lex.uz. [Online] 05 21, 2019. <https://lex.uz/uz/docs/-4346831?ONDATE=01.01.2025%2000>.
6. 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4477-son . Lex.uz. [Online] 10 04, 2019. <https://lex.uz/docs/-4539502>.
7. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida PF-158-son. Lex.uz. [Online] 09 11, 2023. <https://lex.uz/docs/-6600413>.
8. Uzbekistan intends to boost share of renewable energy sources in balance to 54% by 2030 – president . interfax.com. [Online] January 14, 2024. <https://interfax.com/newsroom/top-stories/109112/>.
9. Урановые проекты в странах Центральной Азии: перспективы и сложности реализации. Общество: политика, экономика, право. Гарбузарова, Е Г. № 1, 2024. С. 23–28.
10. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Тошкент : Ўзбекистон, 2018. 248.
11. Сафойев , С С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. Тошкент : ЖИДУ босмахонаси, 2005. 159.